



Reflections on certain distinctive characteristics of the principle of legal certainty

Ilkhomjon YUSUPOV¹

Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form

5 October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online

25 November 2025

Keywords:

Principles of law,
the principle of legal
certainty,
the principle of legal
certainty,
rights,
the rule of law,
the national legal system,
compliance with legislation,
law enforcement.

ABSTRACT

This article examines particular features of the principle of legal certainty and assesses its significance. It presents the views of domestic and foreign legal scholars and situates legal certainty as an increasingly important pillar of our national legal system. Legal certainty denotes the existence of a clear, predictable legal standard as manifested in statutory texts and authoritative interpretations by law-enforcement bodies.

The aim of the article is to analyse distinctive aspects of legal certainty as a legal category, to evaluate its contemporary significance for the national legal system, and to show how strengthening this principle contributes to equality, liberty, and justice, especially in regulating relations among legal subjects.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss11/S-pp40-44>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Huquqiy aniqlik prinsipining ayrim o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha mulohazalar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Huquq prinsiplari,
huquqiy aniqlik prinsipi,
huquqiy aniqlik prinsipi,
huquqiyatlari,
huquq ustunligi,
milliy huquqiy tizim,
qonunchilikka rioya etish,
huquqni qo'llash.

Ushbu ilmiy maqolada huquqiy aniqlik prinsipining ayrim o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha mulohazalar bildirilgan. Shu bilan birga, huquqiy aniqlik prinsipining ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada huquqiy aniqlik prinsipi yuzasidan milliy va xorijiy huquqshunos olimlarining fikr-mulohazalari va qarashlari ham keltirib o'tilgan. Huquqiy aniqlik milliy huquqiy tizimimizda tobora muhim omilga aylanib bormoqda. Jumladan, huquqiy aniqlik huquqni qo'llash hujjatlarining matnlari va talqinlaridan kelib chiqqan holda, huquqiy standartning aniqligi, ravshanligi va mavjudligini anglatadi.

¹ Teacher, Tashkent State University of Law. E-mail: i.yusupov@tsul.uz

Ushbu maqolaning maqsadi huquqiy kategoriya sifatida huquqiy aniqlik prinsipining ayrim o'ziga xos xususiyatlarini tahlil etish orqali uning bugungi kunda milliy huquqiy tizimimiz uchun qay darajada ahamiyatli ekanligi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirish va shu asosida tenglik, erkinlik va adolatga erishilishi, xususan, huquq subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solish uchun zarur bo'lgan huquq barqarorligini ta'minlashning vositasi ekanligini tahlil qilishdan iborat.

Размышления о некоторых специфических особенностях принципа правовой определенности

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Принципы права, принцип правовой определенности, правомочия принципа правовой определенности, верховенство права, национальная правовая система, соблюдение законодательства, правоприменение.

В статье изложены соображения о некоторых особенностях принципа правовой определённости. Также рассматривается значение этого принципа; приведены мнения отечественных и зарубежных ученых-правоведов о его природе и роли. Правовая определённость становится всё более значимым фактором национальной правовой системы. В частности, она подразумевает ясность, предсказуемость и наличие правового стандарта, вытекающего из текстов правовых норм и толкований правоприменительных актов.

Цель статьи – проанализировать отдельные особенности принципа правовой определённости как правовой категории, оценить его значимость для современной национальной правовой системы и на этой основе способствовать обеспечению равенства, свободы и справедливости, в том числе при регулировании взаимоотношений между субъектами права.

KIRISH

Hozirgi davrda huquqiy aniqlik prinsipi roman-german huquq oilasiga mansub rivojlangan davlatlarda asosiy huquqiy tamoyillardan biri sifatida e'tirof etilgan bo'lsa-da, ayrim mamlakatlarning huquq ijodkorligi jarayonida hamda yuridik amaliyotida unga yetarlicha e'tibor qaratilmayotgani kuzatiladi. Shunday ekan, milliy yuridik fan va amaliyotda mavjud huquqiy muammolarga yechim topish hamda huquqiy aniqlik prinsipining haqiqiy mazmun-mohiyatini anglab yetish uchun, eng avvalo, ushbu prinsipning tarixiy shakllanish jarayoniga va uning huquqiy tabiatiga alohida to'xtalib o'tish zarur. Huquqiy aniqlik prinsipi dastlab Qadimgi Rim huquqshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan. Bu tushuncha nemis tilidagi "rechtssicherheit" va fransuz tilidagi "securite juridique" so'zlaridan kelib chiqqan. Bular o'zbek tilida "huquqiy xavfsizlik" degan ma'noni anglatadi.

MATERIAL VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, mantiqiy usullaridan foydalanildi. Shu bilan birga ishda bir qator masalalarni hal qilish uchun bilishning maxsus (qiyosiy huquqiy va rasmiy huquqiy) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari ishda qo'llanilgan usullar va metodologiya o'rganish doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar aniq huquqiy manbadan olingani, qonun hujjatlari tahlili asosida taklif va tavsiyalar berilganligi ahamiyatlidir.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy aniqlik prinsipi bo'yicha turli olimlarning fikrlari tahlil qilindi.

Biz mazkur ilmiy maqolada huquqiy aniqlik prinsipining o'ziga xos xususiyatlari va yuridik amaliyotdagi o'rni yuzasidan fikr yuritamiz.

TADQIQOT NATIJALARI VA UNING TAHLILI

Huquqiy aniqlik prinsipi bo'yicha qilingan dastlabki tadqiqot ishlaridan biri ingliz olimi V.Blekstouniga tegishli bo'lib [1], bu tadqiqot XVIII asrda rus tiliga tarjima qilingan. Ko'plab huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarini tahlil qilish orqali shu holat aniqlandiki, hozirgi vaqtda huquqiy aniqlik prinsipini "resjudicata" ("hal qilingan ish") shaklida qo'llash odat tusiga kirgan.

MDH mamlakatlari huquqshunos olimlari, jumladan, N.A. Vlasenko [2], Yu.A. Tixomirov [3], N.N. Kovtun [4] va A.V. Demin[5]larning ilmiy ishlarini tadqiq etish orqali shu narsani aniqlash mumkinki, ularning asarlari asosan huquqiy aniqlik prinsipini xalqaro doirada qo'llash masalalariga bag'ishlangan.

O'zbek huquqshunos olimlaridan A.A. Muxammadiyev, A.I. Toshpulatov, A.Sh. Sodikov, D.Y. Xabibullayev, N.I. Xayriyev, O.R. Fayziyev, R. Yusuvaliyeva, T.X. Abbosxonov, O'. Muhamedov va Sh.U. Yakubov[6]larning tadqiqot ishlarida huquq prinsiplari muayyan darajada tadqiq etilgan bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar yuridik fanda ushbu fikrlarni tushuntiradigan yagona yondashuv va talqin ishlab chiqilmaganligini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, davlatimizda huquqiy aniqlik prinsipi mavzusida ilmiy tadqiqot ishlari monografik tarzda amalga oshirilmagan. Shuning uchun ushbu prinsipni norma ijodkorligi hamda yuridik amaliyotda tatbiq qilish masalalari va o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali muayyan taklif, tavsiya va ilmiy xulosalarni ilgari surish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun, avvalambor, huquqshunos olimlarning mazkur masalaga oid fikr-mulohazalari hamda yondashuvlariga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

I.S. Dikaryevning fikricha, "huquqiy aniqlik prinsipi protsessual huquqning asosiy elementi sifatida huquqni qo'llashga oid qarorlarning barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, huquqiy aniqlik prinsipining mohiyati quyidagi xususiyatlardan iborat:

- 1) huquqiy tartibga solish tizimining barqarorligi;
- 2) fuqaroning amaldagi qonunlar va qonunosti hujjatlari, huquqlari va qonuniy manfaatlariga daxldor bo'lgan huquqni qo'llash qarorlaridan xabardorligi;
- 3) huquq normalari va huquqni qo'llash qarorlarining aniqligi, bir ma'noliligi va izchilligi;
- 4) qonunning bir xilda qo'llanilishi;
- 5) huquqni qo'llash qarorlarining barqarorligi;
- 6) sud qarorlarining ijro etilishi" [7].

Bizningcha, I.S. Dikaryev "huquq normalari" va "sud amaliyotining birligi", "huquqni qo'llashga oid qarorlarning barqarorligi" va "sud qarorlarining bajarilishi"ni sun'iy ravishda birlashtirib yuborgan.

I.A. Pokrovskiyning qarashlariga ko'ra, huquq normalarining aniqligi insonning tasavvur qila oladigan eng muhim tushunchalardan biri bo'lib, bunday prinsipsiz hech qanday "huquq" haqida gap bo'lishi mumkin emas [8], S.S. Alekseyev huquq va burchlar

aniqligining normativlik bilan uzviy bog'liq ekanligini [9], huquqshunos olim V.V. Ilin esa har qanday obyektни sifatli tahlil qilish uning mohiyatini aniqlashda namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [10]. N.I. Matuzov va A.V. Malkolar huquqning aniqligi yoki huquqning rasmiy aniqligining normativlik, umumiy majburiylik, davlat bilan aloqadorlik kabi xususiyatlarini ko'rsatib o'tadilar[11].

V.V. Yershovlarning qayd etishicha, "huquqni aniqlashtirish biror bir hodisani noaniqlikdan aniqlikka o'tish muammosini mantiqiy ravishda yechish hisoblanadi" [12].

N.A. Vlasenko esa "huquqiy aniqlik prinsipiga huquqiy ko'rsatmaning noaniqligidan aniqligiga o'tish, shuningdek, ma'lum bir huquqiy regulyatorga huquqiy faktning paydo bo'lishi munosabati bilan huquq normasining noaniqligidan iborat bo'lgan huquqiy tartibga solishning obyektiv xususiyati sifatida qaraydi" [13].

Huquqshunos G.G. Shmelyeva "qonun ijodkorligini aniqlashtirish va huquq normalarini o'rnatish bo'yicha vakolatli organlarning obyektiv qarashlari hamda ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning aniqligini oshirish, ushbu tushunchalarning mazmunini kengaytirishga aniq va mavhum normalarning hajmini kamaytirish orqali erishish mumkin bo'lgan omil sifatida talqin etadi" [14].

V.V. Yershov, N.A. Vlasenko, G.G. Shmelyeva, O.E. Leyst va S.S. Alekseyev kabi huquqshunos olimlarning ilmiy ishlarini tahlil etish orqali shuni ko'rsatish mumkinki, huquqiy aniqlik prinsipi huquq normasini aniqlashtirish faoliyati bilan birga tahlil etiladi. Fikrimizcha, huquqiy aniqlik prinsipiga asosiy g'oya sifatida yondashish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Huquqiy aniqlik prinsipining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash maqsadida AQSh, Yevropa va Lotin Amerikasi mamlakatlari olimlarining tadqiqotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, S.G. Novoa [15] tomonidan ilgari surilgan "kofeinsiz qonunlar" fenomeni yaqqol ko'zga tashlanadi. Olimlarning fikricha, huquq normalari aniqlik prinsipiga asoslanmasa, ularning "kofeinsiz qahva"dan farqi qolmaydi.

Huquqiy aniqlik prinsipi yuzasida dunyo huquq oilasida ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Xususan, V. Bryuggerning qayd etishicha, "ushbu prinsip Rim huquqidagi "ius certum" yoki "pax", "securitas" va "libertas" tushunchalari, imperiya huquqining kazuistik tabiati va keyinchalik ham tiklanmaydigan davlat institutlarining yo'qligi bilan uzviy bog'liq" [16]. A. Arnauld esa o'z qarashlarida mazkur prinsipning XVI asrda ratsionallikni huquqiy bilimlar qatoriga olib kirishga qaratilgan "certitudo iurisprudientiae" tushunchasi bilan bog'langanini ta'kidlasa [17], B. Mertens esa mazkur prinsipning XVIII–XIX asr boshlarida ommalashgan kodifikatsiya qilish bilan mazkur prinsip ommalashganligini qayd etadi[18].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, huquqiy aniqlik prinsipini yuridik amaliyotda joriy etish noaniqliklarni bosqichma-bosqich kamaytiradigan tahliliy jarayon bo'lib, o'lchamlari, jihatlari va elementlarini ko'rsatish orqali ifodalanishi mumkin. Ushbu prinsip, bir tomondan, davlat organlari faoliyatining to'laqonli nazorat qilinishini ta'minlaydigan aniqlash, qonuniylashtirish va asoslantirish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Blackstone W. Commentaries on the Laws of England. Book the Third: Of Private Wrongs. – Chicago, 1979. – P. 396.
2. Власенко Н. А. Разумность и определенность в правовом регулировании. – М., 2014. – С.157.

3. Тихомиров Ю. А. Правовое регулирование: теория и практика. М.: Формула права, 2008. – С. 400.
4. Ковтун Н.Н., Зорин А. А. Принцип правовой определенности в системе правовых позиций и итоговых выводов Конституционного Суда РФ // Вестник Волгоградского государственного университета. Серия 5: Юриспруденция, 2015. № 3. – С. 143–149.
5. Демин А. В. Принцип определенности налогообложения. – М., 2015. – С. 368.
6. Якубов Ш.У. Ўзбекистон ҳуқуқий тизимида ҳуқуқий қадрият ва тамойилларнинг шаклланиши // 12.00.01 – ю.ф.н. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ФА Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2008. – 168 б.
7. Дикарев И. – С. Принцип правовой определенности и законная сила судебного решения в уголовном процессе: Монография. – Волгоград, 2015. – С. 5.
8. Покровский И. А. Основные проблемы гражданского права. – М., 1998. – С. 89.
9. Алексеев С.С. Право – надежда наша. Собр. соч. Т. 9. – С. 32.
10. Ильин В. В. Качество, количество, мера // Диалектический материализм. – М., 1975. – С. 205.
11. Матузов Н.И., Малько А.В. Теория государства и права. – М., 2002. – С. 272 – 274.
12. Ершов В. В. Конкретизация права: теоретические и практические проблемы // Конкретизация права: теоретические и практические проблемы: Материалы IX Международной научно-практической конференции. – М.: РГУП, 2015. – С. 47.
13. Власенко Н. А. Методологические основы исследования конкретизации в праве // Конкретизация права: теоретические и практические проблемы: Материалы IX Международной научно-практической конференции. – М.: РГУП, 2015. – С. 72.
14. Шмелева Г.Г. Конкретизация юридических норм в правовом регулировании. – Львов, 1988. – С. 85.
15. Cesar Garcia Novoa. El principio de seguridad jurídica en materia tributaria. – Madrid: Marcial Pons, 2000. P. 139.
16. Winfried Brugger, Gewährleistung von Freiheit und Sicherheit im Lichte unterschiedlicher Staats und Verfassungsverständnisse, VStRL. – Berlin, 2004, – P. 103.
17. Andreas Arnauld, Rechtssicherheit, Tübingen, Mohr Siebeck, 2006, p. 9. Italo Birochi, Alla Ricerca dell'Ordine. Fonti e cultura giuridica nell'età moderna, Torino, Giappichelli, 2002, – P. 159.
18. Bernd Mertens, Gesetzgebungskunst im Zeitalter der Kodifikationen, Tübingen, Mohr Siebeck, 2004. – P. 354.